ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIDA “DEHQON VA DEHQONCHILIK” KONSEPTI BILAN ALOQADOR MAQOLLARNING QIYOSIY TAHLILI

Mahzuna Ramazonova
Assistant - o’qituvchi, Zarmed Universiteti
ramazonovamahzuna@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20428336
Samarqand, O’zbekiston

MAQOLA HAQIDA
Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, paremiologiya, dehqonchilik konsepti, koreys tili, o‘zbek tili, milliy mentalitet, madaniy kod, majoziy ma’no, agrar madaniyat.
Annotatsiya: Ushbu maqolada koreys va o‘zbek tillaridagi dehqonchilikka oid maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda maqollar xalqning agrar madaniyati, mehnatga munosabati va milliy mentalitetini aks ettiruvchi muhim manba sifatida o‘rganilgan. Maqolada har ikki xalqning dehqonchilik an’analari bilan bog‘liq o‘xshash va farqli jihatlari konkret misollar (ekvivalentlar) yordamida ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi leksikasining maqollarda to‘g‘ri va ko‘chma (majoziy) ma’nolarda qo‘llanishi tahlil qilinib, ularning ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati ochib berilgan.

A COMPARATIVE STUDY OF AGRICULTURAL PROVERBS IN KOREAN AND UZBEK: THE CONCEPT OF "FARMER AND FARMING"

ABOUT ARTICLE
Keywords: linguoculturology, paremiology, agricultural concept, Korean language, Uzbek language, national mentality, cultural code, figurative meaning, agrarian culture.
Abstract: This article provides a comparative linguoculturological analysis of agricultural proverbs in the Korean and Uzbek languages. In this study, proverbs are examined as vital resources reflecting the agrarian culture, attitude toward labor, and national mentality of the people. The article identifies the similarities and differences in the agricultural traditions of both nations using specific examples and equivalents. Furthermore, it analyzes the use of agricultural vocabulary in proverbs through both literal and figurative (metaphorical) meanings, revealing their social and educational significance.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА «ЗЕМЛЕДЕЛИЕ» В ПАРЕМИОЛОГИИ КОРЕЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

О СТАТЬЕ
Ключевые слова: лингвокультурология, паремиология, концепт «земледелие», корейский язык, узбекский язык, национальный менталитет, культурный код, переносное значение, аграрная культура.
Аннотация: В данной статье проводится сравнительный лингвокультурологический анализ пословиц, связанных с земледелием, в корейском и узбекском языках. В исследовании пословицы рассматриваются как важный источник, отражающий аграрную культуру, отношение к труду и национальный менталитет народа. На конкретных примерах (эквивалентах) показаны сходства и различия в земледельческих традициях двух народов. Также анализируется употребление сельскохозяйственной лексики в пословицах в прямом и переносном (метафорическом) смыслах, раскрывается их социально-воспитательное значение.

[Kirish va konseptning ahamiyati]

Koreys tili maqollaridagi milliylik haqida gapirar ekanmiz, koreys xalqining turmush tarzi haqida so‘z yuritib o‘tishimiz maqsadga muvofiqdir. Dunyo millatlari orasida ushbu xalq vakillari mehnatkashligi bilan ajralib turadi. Bu jihat maqollarida ham o‘z aksini topadi [1]. Dehqonchilikka oid

maqollarda “dehqon”, “dehqonchilik”ka bog‘liq konseptlarning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Ushbu konseptlarsiz bu sohani tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘zbek xalqi qadimdan mehnatkash xalq sifatida e’tirof etilgan. Koreys xalqi ham qadimdan to hozirgi kunga qadar dehqonchilik sohasida ko‘pgina yutuqlarga erishib kelyapti. Shunga ko‘ra o‘zbek va koreys tillarida ko‘plab yig‘im-terim, umumiy olganda dehqonchilikka oid maqollarni uchratishimiz mumkin [3]. Ammo o‘zbek tilidagi shu sohaga oid maqollar keltirilganda doim ham o‘z ma’nosida qo‘llanavermaydi. Ya’ni, dehqonchilikka oid konsept qo‘llansada, tub ma’no boshqacha bo‘lishi mumkin.

[Qishloq xo‘jaligi maqollarining ijtimoiy funksiyasi]

Qishloq xo‘jaligi maqollarida dehqonlarning ishlab chiqarish tajribasi yetakchilik rolini o‘ynaydi. Maqollar hayot saboqlari yoki tajribalarini qisqacha ifodalovchi standartlashtirilgan hikmatli so‘z bo‘lib, u kishilar hayoti bilan doimo chambarchas bog‘liq bo‘ladi [2]. Demak, maqol har qanday yoshdagi va jinsdagi odamlar tomonidan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan do‘stona so‘zlar jamlanmasi hisoblanadi. Koreyada qishloq xo‘jaligi uzoq tarixda xilma-xil bosqichlarda rivojlangan bo‘lib, qishloq xo‘jaligi madaniyatining shakli dehqonchilikka oid maqollarda ham o‘z aksini topadi. Koreyada tarixan mamlakat sanoati qishloq xo‘jaligiga asoslangan bo‘lib, milliy boshqaruvning asosi qishloq xo‘jaligi edi ("Nongja Cheonhadaebon"). Maqollarda turli dehqonchilik ishlari va dehqonchilik usullari, jumladan, dehqonlarning turmush sharoiti haqidagi mazmun o‘rin olgan [5]. Bu dehqonchilikni amalga oshirish va hosil yetishtirishda ham katta yordam berdi.

Masalan: ‘내 배부르면 종의 밥 짓지 말라 한다’ (Eh, to‘ysam, xizmatkor guruch pishirma, deydi); ‘부자가 하나이면 세 동네가 망한다’ (Bir boy bo‘lsa, uch qishloq xarob bo‘ladi); ‘윗물이 맑아야 아랫물이 맑다’ (Yuqori suv tiniq bo‘lsa, shunda pastki suv tiniq bo‘ladi).

Xuddi shu kabi maqollar dehqonlarning tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlarini, hayotiy tajribalarini umumlashtiradi. Bu tajribadan kelib chiqadigan idrok va fikrning ifodasi maqollardir. Shunday qilib, maqollar ijtimoiy hayot va xalqning fikrlari, ongi va qarashlari haqidagi idrok, tajriba va fikrning ifodasidir. Bu munosabatning bevosita ifodasi esa hayot natijasi va hayot haqiqatidir.

[Maqollarda ma’no ko‘chishi va obrazlilik]

Maqol — xalqning tarixiy hayot tajribasiga asoslangan saboq; bu fikr va tasavvurlarni qisqartirilgan til shaklida obrazli ifodalash usulidir [4]. Koreys va o‘zbek tilidagi ba’zi maqollar o‘z ma’nosini saqlab qolmaydi. Ya’ni ular ko‘chma ma’noda kelishi ham mumkin. Masalan:"Dehqon tarig‘idan kechsa ham, chumchuqlar chiqisholmaydi" – variantlari: "Donxonada sichqon chiqishmas". Ya’ni, odamga qanchalik berma, baribir ko‘zi to‘ymaydi ma’nosida kelayapti. Biroq, o‘z ma’nosini saqlab qolgan maqollar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Masalan:"Qantar ovsa, qalt etar, Dehqonning ko‘zi yalt etar" maqolini bunga misol qilib keltirishimiz mumkin. "Dehqonchilik – chilik-chilik, bo‘lmasa – quruqchilik": varianti – "Dehqonning qopi tik turmasa, beli bukiladi". Dehqonlar o‘tmishda omadlari kelib, hosilga ega bo‘lib qolsalar – biror tabiiy ofatga duchor bo‘lib hollari voy bo‘lardi. Koreys tilida ham o‘z ma’nosida emas, ko‘chma ma’noda keladigan maqollarni uchratishimiz mumkin. Masalan: 산중 벌이하여 고라니 좋은 일 했다. / 산중 농사 지어 고라니 좋은 일 했다. (Zahmat chekib mehnat qilsang yaxshi hosil olasan). Bu maqolda 고라니 (suv kiyigi) ko‘chma ma’noda qo‘llangan [6].

[Majoziy va to‘g‘ri ma’no tahlili]

"Bug‘doy o‘rilgach, o‘roqni zang bosadi." Ba’zi beparvo dehqon bug‘doyini o‘rib olgach, o‘rog‘ini yuvib, tozalab, bir chekkaga olib qo‘ymaydi-da, kelasi mavsumgacha zang bostirib, ishga yaroqsiz qilib qo‘yadi. Bu – maqolning to‘g‘ri ma’nosi. Majoziy ma’nosi shunday: ba’zi odam biror ishini bitirib beradigan odamning atrofida ishi bitguncha girdikapalak bo‘lib, yalinib yolvorib yuradi. Ishini bitirib olgach, u odamga qayrilib ham qaramaydi, mabodo ko‘cha-kuyda ko‘rib qolgudek bo‘lsa, o‘zini ko‘rmaganga solib, chetga qarab o‘tib ketaveradi. Yuqoridagi maqol ana shunday odamlarga qarata aytiladi.

[Qiyosiy ekvivalentlar tahlili]

Koreys tilida ham yuqorida keltirib o‘tgan maqollarga o‘xshash dehqonchilikka oid maqollarni son-sanoqsiz uchratishimiz mumkin. 부지런한 농사꾼에게는 나쁜 땅이 없다. (Mehnatkash dehqon uchun yerning yomoni bo‘lmaydi). Ya’ni, dehqon agar mehnat qilsa, dangasalik qilmasa har qanday unumsiz

yerni obod qilib, unga ekin ekib, yaxshi hosil olishi mumkin. Bu maqol o‘zbek tilidagi "Qalovini topsang qor ham yonadi" maqoliga to‘g‘ri keladi [3]. 농사 지을 줄 모르는 농민이 땅 타발을 한다 (Dehqonchilik qilishni bilmaydigan odam yerni bahona qiladi). Maqolning o‘zbek tilidagi ekvivalenti sifatida "Dangasaning bahonasi ko‘p" maqolini misol qilib keltirishimiz mumkin. 땀은 땀대로 흘리고 농사는 풀농사만 짓는다 (Ter oqishini-ku uyoqqa qo‘ying, dehqonchilikda faqat o‘t o‘stiradi). Ya’ni tajribasiz odam dehqonchilik qilsa biron foyda ololmay, faqat ziyoniga ishlaydi degan ma’noni anglatadi. Bu maqolni o‘zbek tilidagi "Chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin" maqoli bilan ma’no jihatidan o‘xshash deb ayta olamiz. Ya’ni, qanday ish qilishdan qat’iy nazar, o‘zining ustasi qilgani yaxshi.

[Xulosa va kelgusidagi tadqiqotlar]

Bu kabi dehqonchilik haqidagi xalq maqollarini koreys tilida ko‘plab uchratishingiz mumkin. Maqollar tez-tez uchraydigan narsaga qarab guruhlanganligi sababli, ular yuqoridagi keltirilganlardan boshqa ma'nolarga ham ega. Maqol butun bir xalqning madaniyatini ifodalamaydi. So'zlar madaniyatning bir qismi xolos [2]. Hozirgacha turli xil mavzulardagi maqollar ilmiy tomondan chuqur o’rganilib kelinmoqda. Maqollar dehqonchilikka bog’liq maqollardan tashqari, oziq-ovqat, kiyim-kechak, boshpana va boshqa turli mavzularda turli mezonlarga asoslanib tahlil qilinishi kerak edi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, maqol o'tmishdan bizgacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi va ularni o‘rganish ajdodlarimizning turmush tarzi va tabiatni idrok etishining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Ota-bobolarimiz dehqonchilik haqida qanday o'ylashgan va o’zbek va koreys xalqini idrok etishda qanday farqlar borligini tekshirishimiz lozim. Agar bu narsalar mavjud bo'lsa, bu ilmiy tadqiqotlarning jadal olib borilishi va til rivojlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
2. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
3. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.
4. Lee Ki-moon. Introduction to the History of the Korean Language. – Seoul: Pagijong Press, 2005.
5. National Institute of Korean Language. Standard Korean Language Dictionary (표준국어대사전). – Seoul, 1999.
6. Kim, J.H. Dictionary of Korean Agriculture Proverbs. – Seoul: Minsokwon, 2012.